

PUDRAT SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA TURLARI

Qarshibekova Umriniso Sharafiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: qarshibekovau@gmail.com

ANNOTATSIYA

Pudrat shartnomasi tuzish bilan bog‘liq masalalarga biz hozirgi kunda deyarli har kuni duch kelamiz. Ushbu maqola pudrat shartnomasi va uning huquqiy belgilari, uning vujudga kelish etimologiyasi, ushbu shartnomaning boshqa shartnomalardan farqi hamda uning hozirgi hayotimizda ishlatilishi haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: pudrat shartnomasi, buyurtmachi, pudratchi, yordamchi pudratchi, taraflar.

KİRİŞ

Pudrat shartnomasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda aholining maishiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Pudrat shartnomasi xususida fikr yuritishdan oldin , avvalo, pudrat tushunchasiga tavsif berish o‘rnlidir.

Pudrat so‘zi etimologiyasiga ko‘ra, mazkur so‘z rus tilidagi podryadit - vaqtinchalik ishga yubormoq, biror narsani olmoq, topmoq; hamda podryad - bir yo‘la; degan ma’nolardan iboratligini ko‘rishimiz mumkin. Pudrat so‘zining ma’nosи “bir tomon ikkinchi tomon buyurtmasi asosida ma’lum bir ishni to‘lig‘icha (batamom) bajarib berish majburiyatini olganligi haqidagi shartnoma va shu asosda bajariladigan ishning o‘zi.”

Pudrat shartnoma turi sifatida qadimgi rim huquqi davridanoq qo‘llanilgani manbalardan ma’lumdir. Qadimgi Rim huquqi sivilistlari ham pudrat munosabatlarini, uning vujudga kelish asoslarini, munosabatni tartibga solish usul va vositalarini, nizolarni bartaraf etish masalalarini ilmiy va amaliy tadqiq etishga harakat qilishgan hamda u davrda amalda bo‘lgan turli normativ hujjatlar orqali tartibga solishga harakat qilishgan. Pudrat shartnomasi (locatio-conductio operis) rim huquqida ashyolarni, ishlar va xizmatlarni ijara ga berish shartnomasi (locatio-conductio) ning bir turi sifatida qaralgan¹. O.S.Ioffe va E.A.Suxanovlarning ta’kidlashlaricha rim huquqida ijaraning uch ko‘rinishi bo‘lgan. Ular narsalarni

¹ Гражданское право. Ч.2. под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. –М.: Проспект. 2005.-358 б.

ijaraga berish, xizmatlarni ijaraga berish va ishlarni ijaraga olish. Qonunchilik tizimida narsalarni ijaraga olish yaxshi rivojlangan. Xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish shartnomalarining o'xshash tomonlari bo'lganligi sababli, bir-biridan predmeti bilan farqlangan¹.

M.I.Braginskiy ushbu holat haqida fikr yuritar ekan, turli xil ish va xizmatlarga ehtiyojni qondirishning asosiy usuli qullarning harakati shartnomalarning bunday birlashuviga asos bo'lgan. Agar ish bajarish uchun qul yollangan bo'lsa, ashyolarni ijaraga berish shartnomasi tuzilgan, agar ijrochi erkin rim fuqarosi bo'lsa, u holda pudrat yoki xizmatlar ijarasi shartnomasi tuzilgan. Lekin xizmatlar ijarasi va pudrat shartnomalari bir-biridan ajratilgan. Bular orasidagi farq pudrat shartnomasi bo'yicha har doim ma'lum iqtisodiy natija (opus) ga erishilgan, xizmatlar ijarasida esa bunday natija kelib chiqmasligi bilan belgilangan². Shunday qilib pudratchi ishining bajarilishi ma'lum bir natijaga erishishni ko'zda tutgan. Masalan, ashyolarni ishlab chiqarish, uning ta'mirlanishi, uning iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi yoki o'zgarishi yoxud ijrochidan aniq ashyoviy yoki moddiy natijani olishga yo'nalgan.

ASOSIY QISM

Pudrat shartnomasi alohida shartnomada turi sifatida fuqarolik qonunchiligidagi maxsus normalar bilan tartibga solinadi. Pudrat shartnomasi munosabatlari maxsus qonunlar – Fuqarolik kodeksining 37-bobi (Pudrat to'g'risida umumiy qoidalar (631-655-moddalar), maishiy pudrat (656-665-moddalar), qurilish pudrati (666-685-moddalar), loyixa va qidiruv ishlari pudrati (686-692-moddalar), ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari pudrat shartnomalari (693-702-moddalar))³ va boshqa qonunlar bilan tartibga solinishi bilan birga qonunosti hujjalari asosida ham huquqiy tartibga solinadi.

Pudrat shartnomasi bo'yicha shaxslarning mehnat natijalari tovar topshirish yoki xizmat ko'rsatish emas, muayyan ishni bajarishga qaratilgan bo'ladi. Pudrat shartnomasi orqali bir necha turdagisi ishlari bajariladi. Aynan mana shu bajariladigan ishlari pudrat shartnomasining predmeti hisoblanadi. Pudrat shartnomasiga maishiy ta'minlash, muayyan ob'yekevti qurish va ta'mirlash, loyihalash va rejalshtirish, ilmiy-tekshirish, tajriba konstrukturlik va tajriba ishlari kiradi.

Pudrat bu shunday huquqiy munosabatki, unga ko'ra bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini

¹ Гражданское право. –М. Бек. 1993. -264 б., Иоффе О.С. Обязательственное право. –М.: Юр.лит. 1975. -488 б.

² Брагинский М.И. Договор подряда и подобные ему договоры. –М.: 1999, -10 б.

³ Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодекси. –Т.: Адолат. 2022. 631-702 моддалар.

buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi.

Fuqarolik kodeksining 631-moddasida tavsiflanganidek, pudrat shartnomasi bo‘yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi. Agar qonunchilikda yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi.

Fuqarolik kodeksining 631-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni asosida tahrirlangan¹.

Pudrat shartnomasining ayrim turlari (maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyihalash yoki qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari pudrati)ga, agar fuqarolik kodeksning bunday turdagи shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, pudrat to‘g‘risidagi umumiy qoidalar qo‘llaniladi.

Pudrat shartnomasini boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqlash lozim.

Pudrat shartnomaviy munosabati mol-mulkni yoki boshqa ashyoviy huquqqa bo‘lgan mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqadigan shartnomalar (oldi-sotdi (chakana oldi-sotdi, mahsulotni yetkazib berish, tovarlar yetkazib berish to‘g‘risidagi davlat kontrakti, kontraktatsiya, energiya ta’minoti, ko‘chmas mulkni sotish, uy-joy binolarini (kvartiralarni) sotish, korxonani sotish), shuningdek ayrboshlash, hadya, renta, umrbod ta’minalash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish) dan farqi shu bilan belgilanadiki, pudrat munosabatlari muayyan ishni bajarish va uning natijasini topshirish bilan bog‘liq bo‘lsa, mol-mulkni yoki boshqa ashyoviy huquqqa bo‘lgan mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarda mulk tayyorlash, bajarish, qayta ta’miralash mutlaqo ahamiyatsiz bo‘lib, kelishuvga asosan kreditorga mulk topshirilishining o‘zi kifoya bo‘ladi. Shuningdek, pudrat shartnomasining predmeti pudratchi mehnatining ijobiy natiasi hisoblanib, u buyurtmachining topshirig‘iga asoslanadi va buyurtma asosida yaratiladi.

Pudrat shartnomasi bilan tuziladigan majburiatlarning konstitutiv belgilari quyidagilardan iborat:

-pudratchi buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha buyurtmachining u yoki bu individual topshiriqlarini qondirish maqsadida ishni bajaradi;

¹ Qarang.: O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

-pudratchi yangi ashyoni yaratish yoki qayta tiklash, yaxshilash, mavjud bo‘lgan ashyoni o‘zgartirish kabi natijaga ega bo‘lgan belgilangan ishni bajarish majburiyatini oladi;

-pudrat shartnomasi bo‘yicha yaratilgan ashyo to buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilgunga qadar pudratchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi;

-pudratchi shartnomaga asoslangan natijaga erishish usul va vositalarini mustaqil tanlash huquqiga ega (shartnomada va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

-pudratchi ishni bajarish jarayonida uning natijasiga nisbatan tavakkalchilik qiladi.

Pudrat shartnomasining huquqiy belgilari quyidagilardan iborat:

Pudrat shartnomasi ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Chunki, pudrat shartnomasida shartnoma taraflarining har birida o‘ziga xos huquq va majburiyatlar mavjud. Pudratchida shartnomada belgilangan ishni bajarish majburiyatini va bajarilgan ish haqini talab qilish huquqi mavjud bo‘lsa, buyurtmachi shartnomada belgilangan, bajarilgan ish uchun haq to‘lash majburiyati va ishni bajarishni talab qilish huquqi mavjud bo‘ladi.

Pudrat shartnomasi konsensual shartnoma hisoblanadi. Chunki, shartnoma taraflar o‘rtasida kelishuvga erishilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va shu paytdan boshlab kuchga kiradi.

Pudrat shartnomasi haq baravariga tuziladigan shartnomalar turkumiga kiradi. Pudrat shartnomasida buyurtmachi pudratchi tomonidan amalga oshirilgan ishlar uchun shartnomada belgilangan haqni to‘lashi lozim bo‘ladi. Bajarilgan ishning bahosi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Taraflarning kelishuviga ko‘ra, pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar pudrat shartnomasining predmeti hisoblanadi. Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ish ma’lum bir ashyoni tayyorlash, masalan, ishlab chiqarish texnikasiga oid bo‘lgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha olishi mumkin bo‘lmasdan asbob-uskunalar va shunga o‘xshash mahsulotlarni yasatib olish, fuqarolarning maishiy ehtiyojlari uchun buyumlar tayyorlab berish yoki ashyolarni qayta ishlab, ta’mirlab, xomashyoga qayta ishlov berish yoxud boshqacha tartibda ishni bajarib, buyurtmachiga topshirish, yo buyurtmachining topshirig‘iga muvofiq, uning tomonidan ko‘rsatilgan, vakil qilingan shaxslarga topshirishdan iborat hisoblanadi.

Pudrat shartnomasida taraflar.

Pudrat shartnomasida ikki taraf – pudratchi va buyurtmachi ishtirok etadi. Pudratchi – ishni bajaruvchi, buyurtmachi esa – ish bo‘yicha topshiriq beruvchi hisoblanadi. Shuningdek shartnomada pudratchi tomonidan yordamchi pudratchi ishtirok etadi. Pudrat shartnomasida buyurtmachi ham, pudratchi ham huquq va

majburiyatlarga ega bo‘lganligi sababli bir paytning o‘zida har ikki taraf ham kreditor ham qarzdor sifatida majburiyat munosabatlarda qatnashadi.

Pudrat huquqiy munosabat taraflari (sub’yektlari) sifatida muomala layoqatiga ega fuqarolar, huquqiy holati bo‘yicha o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘ladigan va ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar va alohida tarzda o‘z vakolati doirasida davlat ham ishtirok etadi.

Fuqarolik kodeksi 634- moddasida bosh pudratchi va yordamchi pudratchi tushunchalariga quyidagich tavsif berilgan. “Agar qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko‘rsatilgan ishni shaxsan o‘zi bajarish majburiyatları kelib chiqmasa, pudratchi o‘z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilishgahaqli. Bunday hollarda pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Ushbu Kodeks 241-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga va 334-moddasiga muvofiq, bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo‘ladi, buyurtmachi oldida esa yordamchi pudratchi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo‘ladi.

Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi va yordamchi pudratchining har biri bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog‘liq talablarni bir-biriga qo‘yishga haqli emas.

Ushbu moddaning birinchi qismidagi qoidalarni yoki pudrat shartnomasini buzib, shartnomani bajarish uchun yordamchi pudratchini jalb qilgan pudratchi ushbu yordamchi pudratchi shartnomani bajarishda qatnashib, yetkazgan zarar uchun buyurtmachi oldida javobgar bo‘ladi.

Bosh pudratchining roziliginini olgan holda buyurtmachi ayrim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnomaga tuzishga haqli. Bu holda mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun bevosita buyurtmachi oldida javobgar bo‘ladilar.”¹

Fuqarolik kodeksi 634-moddasi qoidalarda buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida vujudga keladigan uchinchi shaxslarni ishga jalb qilish bo‘yicha munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Uchinchi shaxslarni ishga jalb qilish shartnomaviy aloqadorlikning murakkabligi bilan izohlanadi. Bosh yordamchi pudrat shartnomasi doirasida tuziladigan yordamchi pudrat shartnomasining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uning sub’ektiv tarkibi hisoblanadi. Ushbu shartnomaning sub’ekti faqat ixtisoslashgan

¹Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодекси. –Т.: Адолат. 2022. 634-модда. 306-307 бетлар.

qurilish tashkilotlari bo'lishi mumkin. Tuzilgan shartnoma bo'yicha pudratchi uchinchi shaxslarni jalg qilmay, buyurtmachining topshirig'ini bajarishi, belgilangan holat shartnomaning bir darajali tuzilishdagi (buyurtmachi — pudratchi) shartnoma ekanligidan dalolat beradi. Agar shartnoma bo'yicha buyurtmachining topshirig'ini bajarishga uchinchi shaxslarni jalg qilish imkoniyati mavjud bo'lsa va ular ishga jalg qilingan bo'lsa, unda ikki darajali tuzilishdagi shartnoma haqida so'z boradi, deyish mumkin (buyurtmachi — bosh pudratchi — yordamchi pudratchi).

Ushbu moddada pudratchi tomonidan boshqa shaxslarni (yordamchi pudratchi) o'z majburiyatlarining bir qismini bajarishga jalg qilish imkoniyati va bosh pudratchi, yordamchi pudratchi, buyurtmachilarining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qoidalar belgilangan.

Sharhanayotgan moddaning 1-qismiga muvofiq, agar qonun hujjalarda yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko'rsatilgan ishni shaxsan o'zi bajarish majburiyatları kelib chiqmasa, pudratchi o'z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalg qilishga haqli.

Ta'kidlash joizki, taraflarning munosabatlarini shartnomaviy tartibga solish, buyurtmachi - bosh pudratchi va bosh pudratchi - yordamchi pudratchi darajadagi tuzilishi bo'yicha amalga oshiriladi. 4-qismga muvofiq, pudrat shartnomasini yoki ushbu modda 1-qismi qoidalarini buzib, ishga uchinchi shaxsni jalg qilishi oqibatida yetkazilgan zararlar uchun pudratchining javobgarligi belgilangan. Qoidaga ko'ra, buyurtmachi - yordamchi pudratchi shartnomaviy munosabatlari mavjud emas. Gap bu yerda bosh pudratchining buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi harakatlari uchun, yordamchi pudratchi oldida buyurtmachining harakatlari uchun javobgarligi haqida ketmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ushbu munosabatlarga nisbatan Fuqarolik kodeksi 241 va 334-moddalarining majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash va ularning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi haqidagi normalari qo'llaniladi.

Buyurtmachi.

Ma'lum bir ashyoni tayyorlash, ishlab chiqarish texnikasiga oid bo'lgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo'yicha olishi mumkin bo'limgan asbob-uskunalar va shunga o'xhash mahsulotlarni yasatib olish, maishiy ehtiyoj uchun buyumlar tayyorlash, ashyolarni qayta ishlash hamda ta'mirlash, xomashyoga qayta ishlov berish kabi bir qator topshiriqlarni beruvchi shaxs buyurtmachi hisoblanadi.

Buyurtmachi fuqaro bo'lgan taqdirda, u iste'molchi huquqlaridan foydalanadi. Agar u yakka tadbirdor yoki yuridik shaxs, yoxud davlat va uning organlari bo'lsa, bunday huquqdan foydalana olmaydi.

Pudrat shartnomasida agar fuqaro ish natijasidan foyda olish bilan bog‘liq bo‘lмаган holda, shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun buyurtma bersa, u iste’molchi maqomiga ega bo‘ladi. Iste’molchi deb, bunday munosabatlarda ish natijasidan shaxsiy, oilaviy, uy-ro‘zg‘or va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq bo‘lмаган, ya’ni foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan holda foydalanayotgan jismoniy shaxs – fuqaro tushuniladi.

Agar buyurtmachi yakka tadbirkor yoki yuridik shaxs va davlat bo‘lsa, fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun hujjatlariga asosan buyurtmachi maqomini qo‘lga kiritadi. Buyurtmachi ish natijasidan manfaatdor shaxs. Shu sababli ayrim hollarda o‘zining topshirig‘i asosida, ayrim hollarda esa pudratchining kasbiy mahoratiga tayanib muayyan ishni bajarish bo‘yicha topshiriq beradi.

Ko‘pincha buyurtmachi mutaxassisи bo‘lмаганлиги sababli pudratchiga ishonch bildiradi. Buyurtmachi – iste’molchi bo‘lgan hollarda, ayniqsa, «mutaxassis bo‘lмаганлик» qoidasi ko‘p qo‘llaniladi. Ish natijasidan qoniqmaslik, huquq va qonuniy manfaatlarini paymol etilish hollari «iste’molchi hamisha haq» qoidasidan kelib chiqib nizoni hal qilishga imkon yaratadi.

Pudratchi.

Shartnomada kelishilgan buyurtmani bajarish uchun majburiyat olgan shaxs pudratchi hisoblanadi.

Odatda shartnomada belgilangan ishni pudratchining o‘zi bajarishi lozim. Agar qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko‘rsatilgan ishni shaxsan o‘zi bajarish majburiyatları kelib chiqmasa, pudratchi o‘z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilishga haqli. Bunday hollarda pudratchi bosh pudratchi jalb qilingan uchinchi bir shaxs yordamchi pudratchi hisoblanadi.

Bosh pudratchi yordamchi pudratchini kelishilgan shartnoma bo‘yicha ishni bajarish bilan bog‘liq zarur materiallar bilan ta’minalash majburiyatini oladi. Ishni bajarish muddati bosh pudratchi bilan yordamchi pudratchining kelishuvchiga asosan belgilanadi. Lekin bu muddat asosiy pudrat shartnomasida buyurtmachi bilan kelishilgan muddatdan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Yordamchi pudratchi muddat va kelishilgan ishni bajarish usul va vositalariga shartnoma shartlariga qat’iy rioya etishi shart. Yordamchi pudratchiga ishni bajarish usulini o‘zi belgilash imkoni berilgan hollar bundan mustasno.

Bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo‘lsa, yordamchi pudratchi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun buyurtmachi oldida javobgar bo‘ladi.

Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi va yordamchi pudratchining har biri bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog‘liq talablarni bir-biriga qo‘yishga haqli emas.

Pudrat bo‘yicha bajariladigan ishlar.

Pudrat shartnomasi ishni bajarish bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar turkumiga kirganligi sababli uning predmeti moddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan ashyni yaratish yoki ta’mirlashga qaratiladi.

Fuqarolik kodeksining 632-moddasiga asosan, pudrat shartnomasi ashyni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish), yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ish pudratchining materiallari, uning kuchi va mablag‘lari hisobidan bajariladi.

Agar buyurtmachi bergan materialdan foydalangan holda ishni bajarish shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, pudratchi buyurtmachi bergan materialdan tejab-tergab va rejali foydalanishi, ish tugaganidan so‘ng, ishlatilgan material to‘g‘risida buyurtmachiga hisobot berishi, shuningdek uning qoldig‘ini qaytarib berishi, yoxud o‘z ixtiyoridagi foydalanilmay qolgan materialning qiymatini hisobga olib, buyurtmachining roziligi bilan ishning bahosini kamaytirishi shart.

Pudratchi buyurtmachi bergan materialni tegishli suratda qabul qilib olayotganida undagi kamchiliklarni aniqlash mumkin bo‘lmanligini isbot qila olmasa, u buyurmachi bergan materialning kamchiliklari tufayli ishning lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Pudrat shartnomasini bajarish munosabati bilan buyurtmachi bergan material, uskuna, qayta ishlashga (ishlov berishga) topshirilgan ashyo va pudratchi ixtiyoriga o‘tgan boshqa mol-mulk saqlanmaganligi uchun pudratchi javobgar bo‘ladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachining topshirig‘ini bajarish usullarini pudratchi mustaqil belgilaydi.

Pudratchi o‘zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo‘lmanligi uchun, shuningdek uchinchi shaxslar huquqlari bo‘lgan materiallar va uskunalarni bergenligi uchun javobgar bo‘ladi.

Pudratchi bajargan ish pudrat shartnomasining shartlariga, shartlar bo‘lmanida yoki to‘liq bo‘lmanida esa, odatda tegishli turdagiligi ishlarga qo‘yiladigan talablarga mos kelishi kerak. Agar qonun hujjalarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bajarilgan ish natijasi buyurtmachiga topshirish paytida shartnomada ko‘rsatilgan yoki odatda qo‘yiladigan talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lishi va oqilona muddat davomida shartnomada nazarda tutilganidek foydalanish uchun, agar u shartnomada belgilangan bo‘lmasa, bunday turdagiligi ishning natijasidan odatdagidek foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi kerak.

Agar qonun hujjatlarida pudrat shartnomasi bo'yicha bajariladigan ishga qo'yiladigan majburiy talablar nazarda tutilgan bo'lsa, tadbirkor sifatida ish olib borayotgan pudratchi ishni bunday majburiy talablarga amal qilgan holda bajarishi shart.

Pudratchi belgilangan majburiy talablarga nisbatan sifat jihatidan birmuncha yuqori talablarga javob beradigan ishni bajarishni pudrat shartnomasi asosida o'z zimmasiga olishi mumkin.

Qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchi buyurtmachiga ishning sifatiga kafolat berishi nazarda tutilgan bo'lsa, pudratchi butun kafolat muddati davomida fuqarolik kodeksi 647-moddasining birinchi qismi talablariga mos keladigan ish natijalarini buyurtmachiga topshirishi shart. Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishlar natijasining sifatiga berilgan kafolat ishning natijasini tashkil etuvchi hamma narsaga tegishli bo'ladi.

Ishning bajarish muddati va bahosi. Pudrat shartnomasining muxim shartlaridan biri uning muddatidir.

Pudrat shartnomasida ishni bajarishning boshlang'ich va oxirgi muddatlari ko'rsatiladi. Aksariyat hollarda shartnomada ishning yakunlash qismi ko'rsatiladi. Pudratchi mazkur muddatdan kelib chiqib ishni o'ziga rejalashtirib oladi. Ammo taraflar kelishuvi asosida, shartnomada ishning ayrim bosqichlarini tugallash muddatlari (oraliq muddatlar) ham nazarda tutilishi mumkin. Bu oraliq muddatlar pudratchining muayyan ishning ma'lum bir qismini bajarish va uni topshirishi bilan bog'liq bo'ladi. Pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishni bajarishning boshlang'ich, oxirgi va oraliq muddatlari shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'zgartirilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlang'ich va oxirgi, shuningdek oraliq muddatlarini buzganlik javobgardir. Ayrim hollarda shartnomada belgilangan oxirgi muddatda ish natijasi buyurtmachi lozim darajada topshirilsa, oraliq muddatda yuzaga kelgan javobgarlikdan ozod etiladi.

Taraflar kelishuviziz shartnoma muddatini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Muddatlarni o'zgartirish o'zaro kelishuvga ko'ra shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'zgartirilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari ko'rsatiladi. Pudrat shartnomasida baho nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomani bajarganlik uchun o'xhash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo'yicha haq to'lanishi lozim bo'ladi.

Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchining chiqimlarini va unga to‘lanadigan haqni o‘z ichiga oladi. Pudratchining chiqimlari ish natijasini yaratish uchun buyurtmachi biror material bermaganlik natijasida pudratchi tomonidan ishni bajarish uchun qilgan sarf xarajatlari kiradi. Masalan, poyafzalni ta’mirlashda usta tomonidan ishlatilgan yamash, tikish uchun materiallar, mix qoqishi, yelimlashi natijasida ularning qiymatini o‘z-o‘zidan pudrat qiymatiga kiritib yuboradi. Ish bajarganlik uchun to‘langan haq pudratchining mehnatida rag‘batlantirish hisoblanadi. Bu ikkisi bir bo‘lib shartnomada bahosini tashkil etadi. Ayrim hollarda pudratchining chiqimlarisiz ham shartnomaning bahosi belgilanishi mumkin. Bunda buyurtmachi pudratchini barcha materiallar bilan ta’minlashi lozim bo‘ladi.

Ishning bahosi smeta tuzish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin.

Buyurtmachi pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo‘lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismining bahosini to‘lashni talab qilishi mumkin.

Buyurtmachini pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to‘g‘risida o‘z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi ish uchun shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart.

Pudratchi, qoida tariqasida, qat’iy baho (qat’iy smeta)ni oshirishni, buyutmachi esa uni kamaytirishni talab qilishga, shu jumladan bajarilishi kerak bo‘lgan ishning to‘la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo‘lmagan hollarda ham haqli emas.

Pudratchi tomonidan taqdim qilinishi kerak bo‘lgan materiallar va uskunalar, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan unga ko‘rsatiladigan xizmatlar bahosi ancha oshgan va buni shartnomada tuzish vaqtida nazarda tutish mumkin bo‘lmagan hollar ham uchrab turadi. Bu holatlar vaziyatning jiddiy o‘zgarishi hisoblanadi. Pudrat shartnomasini tuzishda taraflar uchun asos bo‘lgan vaziyatning jiddiy o‘zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomada bahosini (smetani) o‘zgartirish mumkin. Bu holatlar yuz bersa FKning 383-moddasi talablaridan kelib chiqib, pudratchi belgilangan ish bahosini (smetani) oshirishni talab qilishga, buyurtmachi bu talabni bajarishdan bosh tortgan taqdirda esa, shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

Agar smetani oshirish haqida buyurtmachi o‘z vaqtida ogohlantirilmasa, pudratchi smetadan ortiqcha xarajatlarni o‘z hisobiga o‘tkazib, shartnomada bo‘yicha olingan majburiyatni bajarishga majbur. Lekin u shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Natijada u qilgan qo‘srimcha mehnat uchun

buyurtmachidan haq undirib olish imkoniyatini yo‘qotadi. Pudrat shartnomasida qat’iy smeta o‘zgartirilishi mumkin emas.

Pudratchining amaldagi xarajatlari ish bahosini aniqlash vaqtida (smeta tuzilayotganda) nazarda tutilgan xarajatlardan kam bo‘lgan hollarda, basharti buyurtmachi pudratchining tejami bajarilgan ish sifatiga ta’sir etganligini isbotlay olmasa, pudratchi ishlar uchun pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Pudrat shartnomasida pudratchining tejami taraflar o‘rtasida taqsimlanishi nazarda tutilishi mumkin.

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish tegishli tarzda va kelishilgan muddatda, yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to‘lashi shart. Pudratchi qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va miqdordagina o‘ziga bo‘nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli.

Pudrat shartnomasini bajarish munosabati bilan buyurtmachi bergen material, uskuna, qayta ishlashga (ishlov berishga) topshirilgan ashyo va pudratchi ixtiyoriga o‘tgan boshqa mol-mulkarni saqlanishini talab qilishga haqli.

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish tegishli tarzda va kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to‘lashi shart.

Shuningdek ishning sifatli, aniq va belgilangan muddatda bajarilishi nafaqat pudratchiga, balki ayrim hollarda buyurtmachiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu holatlarda buyurtmachi pudratchiga yordam berishi lozim bo‘ladi. Pudratchining ishni bajarishiga buyurtmachi pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda, hajmda va tartibda yordam berishi shart.

Buyurtmachi bu majburiyatni bajarmasa, pudratchi ko‘rilgan zararni, shu jumladan bekor turib qolganlik oqibatidagi qo‘sishmcha chiqimlarni qoplashni yoki ishni bajarish muddatini o‘zgartirish, yoxud pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ish bahosini oshirishni talab qilishga haqli.

Buyurtmachining harakati yoki yo‘l qo‘ygan xatosi tufayli pudrat shartnomasi bo‘yicha ishni bajarish mumkin bo‘lmay qolgan taqdirda, pudratchi ishning bajarilgan qismini hisobga olgan holda shartnomada ko‘rsatilgan bahoni olish huquqini saqlab qoladi.

Shartnomalarini buzganlik uchun javobgarlik. Pudrat shartnomasi bo'yicha javobgarlik har ikki tarafning o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarida kelib chiqadi.

Aksariyat hollarda buyurtmachining javobgarligi, ish natijasini o'z vaqtida qabul qilmaganda, shartnomalarini bahosini o'z vaqtida to'lamaganda, pudratchining ishi tijorat siri yoki uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik bilan bog'liq bo'ladigan bo'lsa va uni oshkor qilmaslik buyurtmachi zimmasiga majburiyat sifatida yuklatilib, buyurtmachi tomonidan bu majburiyatga rioxaliga etilmaganda va boshqa hollarda kelib chiqadi. Aksariyat hollarda buyurtmachi fuqaro bo'lsa, u iste'molchi huquqlaridan foydalanib, «iste'molchi hamisha haq» tamoyilidan foydalanadi.

Topshirilgan ishni pudratchi o'z hisobidan amalga oshiradigan va ishni bajarish usulini o'zi tanlaydigan bo'lsa, pudratchi o'zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo'limganligi uchun, shuningdek, uchinchi shaxslar huquqlari bo'lgan materiallar va uskunalarni bergenligi uchun javobgar bo'ladi. Shuningdek, pudrat shartnomasini bajarish munosabati bilan buyurtmachi bergen material, uskuna, qayta ishlashga (ishlov berishga) topshirilgan ashyo va pudratchi ixtiyoriga o'tgan boshqa mol-mulk saqlanmaganligi uchun pudratchi javobgar bo'ladi.

Shartnomada pudratchining yordamchi pudratchi olishga huquqi bo'lsa, u holda FKning 241, 334 va 634-moddalariga asosan bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo'ladi, buyurtmachi oldida esa, yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi va yordamchi pudratchining har biri bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni bir-biriga qo'yishga haqli emas.

Ushbu moddaning birinchi qismidagi qoidalarni yoki pudrat shartnomasini buzib, shartnomani bajarish uchun yordamchi pudratchini jalb qilgan pudratchi ushbu yordamchi pudratchi shartnomani bajarishda qatnashib, yetkazgan zarar uchun buyurtmachi oldida javobgar bo'ladi.

Bosh pudratchining roziliginini olgan holda buyurtmachi ayrim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnomalar tuzishga haqli. Bu holda mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun bevosita buyurtmachi oldida javobgar bo'ladilar.

Xulosa

Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlang'ich va oxirgi, shuningdek, oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

Agar pudratchi buyurtmachi bergan materialni tegishli suratda qabul qilib olayotganida undagi kamchiliklarni aniqlash mumkin bo‘lmaganligini isbot qila olmasa, u buyurmachi bergan materialning kamchiliklari tufayli ishning lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘ladi.

FKning 650-moddasida ishning sifati lozim darajada bo‘lmaganligi uchun pudratchining javobgarligi nazarda tutilgan. Unga asosan ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqqan holda bajarilib, ish natijasini yomonlashtirgan bo‘lsa, yoki uni shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun yoxud shartnomada yaroqsizlik haqida tegishli shartlar bo‘lmagan taqdirda, odatdagi maqsadlar uchun foydalanishga yaroqsiz qilib qo‘yadigan boshqa kamchiliklar bilan bajarilgan bo‘lsa, buyurtmachi, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, o‘z xohishiga ko‘ra pudratchidan:

kamchiliklarni oqilona muddatda bepul bartaraf etishni;

ish uchun belgilangan bahoni mutanosib ravishda kamaytirishni;

shartnomada buyurtmachining kamchiliklarini bartaraf etish huquqi nazarda tutilgan bo‘lsa, ularni bartaraf etishga qilgan o‘z xarajatlarini qoplashni talab qilishga haqli.

Pudratchi ishdagi o‘zi javobgar bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish o‘rniga, buyurtmachiga shartnomani bajarishni kechiktirganlik natijasida yetkazgan zararni qoplagan holda ishni yangidan bepul bajarib berishga haqli.

Bunday holda buyurtmachi ilgari o‘ziga topshirilgan ish natijasini, agar ishning xarakteriga ko‘ra uni qaytarib berish mumkin bo‘lsa, pudratchiga qaytarib berishi shart.

Agar ishdagi pudrat shartnomasi shartlaridan chetga chiqishlar yoki boshqa xil kamchiliklar jiddiy va bartaraf etib bo‘lmaydigan darajada bo‘lsa, yoxud aniqlangan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan belgilangan oqilona muddatda bartaraf etilmagan bo‘lsa, buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortishga va keltirilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Pudrat shartnomasining muayyan kamchilik uchun pudratchini javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi sharti, agar bunday nuqsonlar pudratchining aybli harakatlari yoki harakatsizligi tufayli vujudga kelganligi isbotlansa, pudratchini javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Ishni bajarish uchun material bergan pudratchi uning sifati uchun sotuvchining sifati lozim darajada bo‘lmagan tovar uchun javobgarligi to‘g‘risidagi qoidalar bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодекси. –Т.: Адолат. 2022. 631-702 моддалар.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
3. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
4. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 608 bet.
5. Гражданское право. Ч.2. под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. –М.: Проспект. 2005.-358 б.
6. Гражданское право. –М. Бек. 1993. -264 б., Иоффе О.С. Обязательственное право. –М.: Юр.лит. 1975. -488 б.
7. Брагинский М.И. Договор подряда и подобные ему договоры. –М.: 1999, -10 б.